

ONG HAQIDA TUSHUNCHA VA UNING XOSSALARI

Abdumalikova Parizoda Abduraim qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Aniq fanlar fakulteti Fizika yo'nalishi 1-kurs 1 - guruh talabasi

abdumalikovaparizoda729@gmail.com

Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Psixologiya kafedrasi o'qtuvchisi Ilmiy rahbar

olimjonozaodqulov@30gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17814558>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ong va uning xossalari tushunchasi batafsil yoritilgan.

Ong: atrof - muhit va o'z - o'zini anglash qobiliyati, shaxsiy tajribalar, fikrlar, sezgilar, xotira va irodadan tashkil topgan murakkab psixologik jarayon. U inson miyasining oliy funksiyasi bo'lib, insonni o'zini va dunyoni idrok etish, tahlil qilish, maqsadli harakat qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Psixologiya, psixika, ong, ongliharakat, ongsizlik, obnubilatsiya, Somnolensiya.

Annotation: This article provides a detailed explanation of the concept of consciousness and its properties. Consciousness is a complex psychological process consisting of the ability to perceive the environment and self-awareness, as well as personal experiences, thoughts, sensations, memory, and will. It is the highest function of the human brain, enabling a person to perceive and analyze both themselves and the world, and to engage in purposeful actions.

Keywords: Psychology, psyche, consciousness, conscious action, unconsciousness, obnubilation, somnolence.

KIRISH

Ong - bu sub'ektning dunyo va undagi o'z o'rni haqidagi tasavvuri, uning ichki aqliy tajribasi haqida hisobot berish qobiliyati bilan bog'liq va birgalikdagi faoliyatni oqilona tashkil etish uchun zarurdir. Ong aqliy faoliyat shakli va oliy nerv faoliyati elementi, uning asosini miya tashkil etadi. Psixologiya sohasida ong tushunchasi bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilgan va ta'riflar keltirilgan. Rus psixolog olimi I.P.Pavlov ta'kidlashicha: Ong - psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib u faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo'lish natijasidir. Bu ma'noda ong mutafakkirlar ta'kidlab o'tganlaridek, ijtimoiy mahsulotdir. Psixika (yunoncha psychikos - "ruhiy") yoki ruhiyat yuksak darajada tashkil topgan materiya(miya)ning voqelikni alohida shaklida aks ettirishdan iborat xususiyati. Ong o'zining muhim 4 ta xossasiga ega. Ongning birinchi xossasi - bu anglash demakdir. Inson ongi tevarak atrofdagi tashqi olamga doir bilimlar yig'indisidan iboratdir. Anglash tashqi olamdagi narsalarni tushunish bo'lib, uning tarkibiga muhim bilish jarayonlari kiradi. Ongning ikkinchi xossasiga binoan, ongda ob'ekt bilan sub'ekt o'rtasidagi aniq farq o'z ifodasini topadi, ya'ni odam "men" degan tushunchani "men emas" tushunchasidan farqini ajratadi. Odam o'zini bilish qobiliyatiga ega bo'lgan, ya'ni psixik faoliyatda o'z - o'zini tekshira oladigan yagona mavjudotdir. Olamni insonsiz, insonni esa ongsiz tasavvur qilish qiyin. Ongning uchinchi xossasiga asosan ong yordami bilan odamning maqsadni ko'zlash faoliyati ta'minlanadi. Faoliyat maqsadlarini yaratish ongning vazifasiga kiradi. Bunday faoliyat motivlariyuzaga keladi va chamalab ko'riladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo'llari hisobga olinadi. Ongning to'rtinchi xossasiga asosan turli munosabatlardan ongli ravishda turli

his - tuyg'ular yuzaga keladi. Ong kishilar munosabatlarining yig'indisidir. Ong yuzaga kelishining asosiy sharti, vositasi tildir. Psixikaning eng quyi darajasi ongsizlikdir. Mashhur psixolog olim Zigmund Freyd birinchi bo'lib fanga bu tushunchani kiritgan. Ongsizlik - bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z xatti - harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Bunga tush ko'rish, ba'zi patologik hodisalar, alaxlash, gallyusinasiya kabilar kiradi. Ongsizlikka bog'liq yana bir tushuncha obnubilatsiyadir. Obnubilatsiya (lotincha bulut) ongning buzilishi, ong bir necha soniya qorong'ulashib, kichik - kichik bulutchalar singari yengil suzib yuradi. Somnolensiya (uyquchanlik) uzoq davom etadigan holat. Bu holatda mo'ljal o'zgarmaydi, pirtli ichimliklardan, uxlatuvchi dori vositalaridan zaharlanganda yoki bevosita ta'sir qilganda kuzatiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ong insonga xos bo'lgan murakkab tushuncha hisoblanadi. Psixologiyada ong,uning tarkibi va xossalari haqida aniq izlanishlar olib borilgan. Bugungi kunda turli texnologiyalar va sun'iy intellektlar yaratilmoqda. Ularning imkoniyati, tezligi juda yuqori. Lekin, u inson ongining o'rnini bosa olmaydi. Chunki, bu kashfiyotlarning barchasi inson aqliy faoliyati natijasida paydo bo'lgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. E.G'. G'oziyev "Psixologiya" darslik: O'qituvchi: Toshkent - 2008
2. P.I.Ivanov,M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya": Toshkent - 2002
3. Y.M.Fayziyev "Umumiy tibbiy psixologiya": Toshkent-2017
4. F.I.Xaydarov,N.I.Xalilova "Umumiy psixologiya": Toshkent - 2008
5. Sh.R.Avezov.O.R.Olimov "Psixologiya nazariyasi va tarixi": O'qituvchi 2009
6. Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li. (2024). Rahbar va xodim munosabatlarining boshqaruv jarayonidagi psixologik xususiyatlari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 41(1), 110 - 113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12079>